



## MA'MURIY SUD ISH YURITUVI KODEKSIDAGI DAVLAT BOJI MASALASI VA UNING AYRIM MUAMMOLI NORMALARI TAHLILI

**Choriyev Ulug'bek Rustamovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
Ommaviy huquq fakulteti, 3-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20486773>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 26-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 28-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 30-may 2026 yil

### KEY WORDS

*ma'muriy sud ish yurituv, sud xarajatlari, davlat boji, sud chiqimlari, blanket norma, kolliziya, qonunchilik, ma'muriy adolat.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada ma'muriy sud ish yurituvida sud xarajatlari, xususan davlat boji institutining huquqiy tabiati va normativ tartibga solinishi tahlil qilingan. Sud xarajatlari tushunchasiga oid doktrinal yondashuvlar yoritilib, O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 111-moddasi hamda "Davlat boji to'g'risida"gi Qonun normalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tadqiq etilgan. Shuningdek, Prezidentning ayrim qonunosti hujjatlarida davlat bojidan ozod qilishga oid normalarning mavjudligi bilan bog'liq kollizion holatlar ko'rib chiqilgan. Muallif tomonidan mazkur ziddiyatni bartaraf etishning huquqiy mexanizmlari taklif etilib, Rossiya, Germaniya va Fransiya tajribasi asosida qiyosiy-huquqiy tahlil amalga oshirilgan.*

### Metadologiya

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda umumilmiy va maxsus yuridik tadqiqot metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Xususan, sud xarajatlari va davlat boji institutining huquqiy tabiatini ochib berishda analiz va sintez metodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar orqali sud xarajatlari tushunchasiga nisbatan mavjud doktrinal yondashuvlar, ularning o'ziga xos jihatlari hamda normativ-huquqiy mazmuni tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida formal-yuridik metod asosida O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi, "Davlat boji to'g'risida"gi Qonun, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentning ayrim normativ-huquqiy hujjatlari mazmunan tahlil qilindi. Mazkur metod yordamida davlat bojidan ozod qilishga oid normalar o'rtasidagi kollizion holat aniqlanib, ularning yuridik kuchi va o'zaro nisbatiga baho berildi.

Bundan tashqari, qiyosiy-huquqiy metoddan foydalanilgan holda Rossiya, Germaniya va Fransiya ma'muriy protsessual qonunchiligidagi sud xarajatlari va davlat bojiga oid yondashuvlar o'rganildi. Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish orqali davlat bojini tartibga solishning "qonunda belgilanadi", "qonunchilikda belgilanadi" hamda blanket normasiz tartibga solish modellari o'rtasidagi farqlar aniqlab berildi.

Tadqiqotdan asosiy maqsad davlat boji institutida mavjud kolliziyani bartaraf etish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Ma'muriy sud ish yurituvida sud xarajatlari instituti odil sudlovni amalga oshirishning muhim protsessual elementlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institut bir tomondan sud faoliyati bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan sudga asossiz murojaatlarning oldini olish, protsessual intizomni ta'minlash hamda taraflarning protsessual mas'uliyatini oshirish vazifasini bajaradi. Shu sababli sud xarajatlarining huquqiy tabiatini aniqlash va uni normativ jihatdan tartibga solish masalasi ma'muriy protsessual huquq nazariyasida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 111-moddasida davlat bojini to'lash asoslari, miqdori va tartibi, uni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash, davlat bojidan ozod qilish hamda uni qaytarish tartibi qonunda belgilanishi nazarda tutilgan. Biroq amaldagi ayrim qonunosti hujjatlarida davlat bojidan ozod qilishga oid normalarning mavjudligi huquqiy kolliziya yuzaga keltirmoqda. Mazkur maqolada ushbu kollizion holatning mazmuni ochib berilib, uni bartaraf etishning ehtimoliy huquqiy yechimlari hamda xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinadi

### **Tadqiqot va natijalar**

Ushbu muammoli masalalarga to'xtalishdan oldin ma'muriy sud ish yurituvdagi sud xarajatlari tushunchasining o'zining mazmunini ochib berishimiz va ayrim normalar tahlilini qilib o'tishimiz zarur. Bunda shunisi ahamiyatliki, fanda sud xarajatlarining o'zini tushunishda 2 xil nuqtayi nazar mavjud. Birinchidan, sud xarajatlari bu taraflar-ning va manfaatdor shaxslarning konkret nizoni sud tomoni-dan ko'rib chiqilishi bilan bog'liq xarajatlari, ya'ni davlat boji va sud chiqimlari tushunilsa (M.A. Gurvich, A.A. Dobrovolskiy, M.S. Shakaryanlar), ikkinchidan, davlat tomonidan ma'muriy odil sudlov funksiyasini amalga oshirishda yuzaga keladigan xarajatlarni protsess ishtirokchilariga kompensatsiya tarzida goplatilishi nazarda tutiladi (M.X. Vafin). Huquqshunos olim Sh.Y.Jurayev o'z asarida sud xarajatlarining bir qator o'ziga belgilarini keltirib o'tadi: 1) ular ma'muriy sudlarga murojaat qilish va ishlarni ko'rib chiqish yuzasidan; 2) ma'muriy ishlarni hal etishga oid protsessual faoliyatning chiqimliliigi, ya'ni tegishli huquq va manfaatlarning himoya qilinishi muayyan tolov asosida ishda ishtirok etuvchi taraflar hisobidan undirilgan holda hal etilishi; 3) sudga asossiz murojaat etilishining oldini olish va ma'muriy adolatni ta'minlashga oid davlat xarajatlarini gonuniy to'lovlar sifatida o'rnatilgan kompensatsiya qilinishi ko'rinishida; 4) xarajatlarni to'lash va taqsimlash gonunda belgilangan bo'lib, bu ma'muriy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlari va turlarini qamrab oladi. Misol uchun, davlat bojini to'lash faqatgina sudga ariza taqdim etishda, balki sud ishi yurituvchining apellatsiya va kassatsiya bosqichlarida ham to'lash nazarda tutilgan [1].

Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 110-moddasiga ko'ra sud xarajatlari 2 ga bo'linishi ma'lum, ya'ni davlat boji va ishni ko'rish bilan bog'liq chiqimlardan. Bizda asosiy masala davlat boji bo'yicha. Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 111-moddasida quyidagicha norma mustahkamlangan: "davlat bojini to'lash asoslari, miqdori va tartibi, uni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash, to'lashdan ozod qilish tartibi, davlat bojini qaytarish tartibi qonunda belgilanadi" [2]. Bu normada "qonunda belgilanadi" deyish bilan O'zbekiston Respublikasining 600-sonli "Davlat boji to'g'risida" gi qonunga ishora qilinmoqda. Jumladan, qonunning 5-moddasi 1-qism, 3-bandida undirish obyekti sifatida davlat bojini to'lash asoslariga oid norma belgilangan; 10-moddasida davlat bojini to'lashdan ozod qilinadigan holatlar keltirilgan; ilovada har bir ish uchun alohida davlat boji stavkalari keltirib o'tilgan [3]. Biz yuqoridagi aytgan masalalarni tahlil qilishda 10-moddaga obdonroq to'xtalib o'tishimiz joiz. 10-moddaga

qaraydigan bo'lsak, unda jami 26 ta davlat bojidan ozod qilish asoslari keltirilgan. Endi qonunchilik hujjatlarida o'rtasida ziddiyat bo'lib qolgan nuqtaning aynan o'zini keltirib beramiz. 2017-yil 14-fevralda qabul qilingan 2776 sonli "O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarorining 10-bandiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va uning tarkibiy korxonalari O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining vakolatlari muvofiq doirasida beriladigan da'vo va arizalar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod etilsin" degan norma belgilangan [4]. Ammo Ma'muriy sud ish yurituvu to'g'risidagi kodeksning 111-moddasida davlat bojidan ozod qilish "qonunda belgilanadi" deyilgan. "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida" gi qonunga ko'ra Prezident qarori qonunosti hujjat hisoblanadi. Qonunning 9-moddasiga ko'ra qonun deganda eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yoki referendum o'tkazish yo'li bilan qabul qilinadigan hujjat tushuniladi [5]. Prezidentning 2776 sonli qarori va undagi kolliziyaga sabab bo'lgan 10-band hali ham o'z kuchida. Amaliyotda ushbu qo'mita tomonidan sudlarga murojaat qilishda ayni shu qaror asosida iltimosnomalar kiritilmoqda. Bunda ziddiyatli holatni bartaraf qilish uchun uchta yo'l mavjud. Birinchi yo'lga ko'ra Prezident qaroridagi ushbu bandni chiqarib tashlash; ikkinchi yo'l esa Ma'muriy sud ish yurituvu kodeksi 111-moddasidagi "qonun bilan belgilanadi" so'zni "qonunchilik bilan belgilanadi" tahririda o'zgartirish; uchinchi yo'lga ko'ra Yevropa davlatlari tajribasini qo'llagan holda bunday blanket moddani o'zini to'raligicha kodeksdan chiqarib tashlash.

Ushbu masalada xorijiy davlatlar tajribasini ham tahlil qilish maqsadga muvofiq. Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy sud ish yurituvu kodeksining 104-moddasi 2-qismida quyidagicha norma mustahkamlangan: "Davlat bojini to'lashdan ozod qilish, uning miqdorini kamaytirish, davlat bojini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash asoslari hamda tartibi Rossiya Federatsiyasining soliqlar va yig'imlar to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq belgilanadi." [6] Ammo ko'plab davlatlar tajribasida umuman blanket norma keltirilmaganini ta'kidlash lozim. Xususan, Germaniya Ma'muriy sud ish yurituvu kodeksining 16-bobi "xarajatlar" deb nomlanadi. Ushbu bobda asosan sud xarajatlarini qaysi taraf to'lashi, sud xarajatlari nimalardan iborat ekanligi, kelishuv bitimi bo'lganda qaysi taraf to'lashi kabi umumiy qoidalargina mavjud [7]. Fransiyaning ma'muriy adolat kodeksi L761-1-moddasida sud xarajatlarini taqsimlashga oid norma mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra sud xarajatlarini to'lash majburiyati yuklatilgan taraf yoki yutqazgan taraf boshqa taraf foydasiga sud xarajatlari tarkibiga kirmaydigan sarf-xarajatlarni qoplash uchun sud tomonidan belgilangan summani to'lashi lozim. Bunda sud adolatlilik talablari hamda yutqazgan tarafning iqtisodiy holatini inobatga oladi. Shu bilan birga, mazkur holatlardan kelib chiqib, sud bunday to'lovni undirmaslik haqida ham qaror qabul qilishi mumkin [8].

### **Xulosa**

Tadqiqot natijalari ma'muriy sud ish yurituvu davlat boji institutining murakkab protsessual va moliyaviy-huquqiy tabiatga ega ekanligini ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy sud ish yurituvu kodeksining 111-moddasida davlat bojiga oid masalalar "qonunda belgilanadi" deb mustahkamlangan bo'lsa-da, amaliyotda ayrim qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar bilan ham davlat bojidan ozod qilish holatlari nazarda tutilgan. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida kollizion vaziyatni yuzaga keltirmoqda.

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida davlatlarning ushbu masalaga nisbatan turlicha yondashuvlari mavjudligi aniqlandi. Xususan, Rossiya Federatsiyasi qonunchiligida davlat bojiga oid masalalar “qonunchilikda” belgilanishi ko'rsatilgan bo'lsa, Germaniya va Fransiya kabi davlatlarda protsessual kodekslarda bunday blanket normalar umuman nazarda tutilmagan hamda sud xarajatlari alohida moliyaviy yoki sud xarajatlari to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

Muallifning fikricha, amaldagi kollizion holatni bartaraf etishning uch ehtimoliy yo'li mavjud: birinchisi, davlat bojidan ozod qilishga oid qonunosti normani bekor qilish; ikkinchisi esa Ma'muriy sud ish yurituv kodeksining 111-moddasidagi “qonunda belgilanadi” jumlasini “qonunchilikda belgilanadi” tahririda bayon etish; yoki umuman bu normani kodeksdan chiqarib tashlash. Mazkur taklif davlat boji institutini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga xizmat qiladi..

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ma'muriy sud ish yurituv (Matn]: darslik/ Mualliflar jamoasi. - T.: TDYU nashriyoti, 2023. - 496 b.
2. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 02/18/MPK/0627-son;
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son;
4. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 8-son;
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.04.2021-y., 03/21/682/0354-son;
6. Russia Ma'muriy sud ish yurituv kodeksi;
7. Germaniya Ma'muriy sud ish yurituv to'g'risidagi kodeksi (Verwaltungsgerichtsordnung);
8. Fransiya Code de justice administrative, L761-1-modda;

**INNOVATIVE  
ACADEMY**